

## JINOYAT ISHLARINI YURITISHDA TARJIMONGA QO'YILGAN TALABLAR

**Ishankulova Shoxista Xayitmuratovna**

*TDYU qoshidagi*

*akademik litsey*

*katta o'qtuvchisi*

**Baxtiyorova Gulsanam Ixtiyor qizi**

*TDYU qoshidagi akademik*

*litsey o'quvchisi*

“Jinoyat ishlari yuritiladigan til” prinsining amalga oshirilishini taminlash zaruriyati jinoyat ishlarini yuritishda tarjimonning jalb qilishini shart qilib qo'yadi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 6-bobida mustahkamlangan qoidalarga muvofiq, tarjimon protsessda ishtirok etuvchi xolis shaxs hisoblanadi.

M.A.Djafarkuliyev tarjimon deganda, voyaga yetgan, tergov va sud harakatlari doirasida tarjimani to'liq va aniq bajarish uchun zarur bo'lgan tillarni va maxsus atamalarni yetarlicha egallagan, ish yakunidan manfaatdor bo'lmagan, o'z zimmasiga tarjima qilish majburiyatini olgan va qonunda ko'rsatilgan hollarda surishtiruv organi, tergovchi, prokuror, sudya, yoki sud tomonidan tayinlangan shaxsni tushunadi<sup>1</sup>. Mazkur tarif tarjimon sifatida ishga jalb qilinadigan shaxsga qo'yiladigan talablarga muvofiq bo'lib, undan nazariy va amaliy maqsadlarda foydalanish mumkin.

Har ikki tilda yozma va og'zaki nutqini erkin egallash, bizningcha shaxsni tarjimon sifatida ishda ishtirok etish asoslaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida tarjimonni chaqirish asoslari (71-modda) uning huquq va majburiyatlari 72-modda) mustahkamlangan. Ammo, unda tarjimon tushunchasi va unga nisbatan talablar aniq belgilanmagan. Bizningcha, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 71-moddasi 1-qismida “Tarjimon-bu ishdan manfaatdor bo'lmagan va har ikki tilni erkin biladigan voyaga yetgan shaxs” tushunchasini mustahkamlash lozim.

Tarjima uchun zarur bo'lgan har ikki tilni erkin bilishda so'zning asl manosidan kelib chiqilsa, “erkin” tushunchasi muayyan xatti-harakatni “qiyinalmay, qiyinchiliksiz,

<sup>1</sup> Джафаркулиев М.А. Проблемы национального языка в судопроизводстве. – Баку, 1989. – С. 81.



bemalol bajarish”ni anglatadi<sup>2</sup>. Bundan ko’rinib turibdiki, gap tarjimani lug’atsiz, ish bo’yicha haqiqatning qaror topishiga tasir ko’rsatmaydigan ko’lamda va aniqlik bilan hamda tergov harakatining olib borilishini yoki ishni sudda ko’rilishini murakkablashtirmaydigan darajada bo’lishini taminlash haqida boradi.

Aksariyat hollarda tarjimon huquq sohasida mutaxassis bo’lib hisoblanmasligiga qaramay, u huquqshunoslar tomonidan hal etiladigan yuridik muammolar va masalalar mohiyatiga tasir etmay turib, barcha zarur bo’lgan, shu jumladan yuridik atamalar va iboralar bilan qiynalmasdan ishlashga imkon beruvchi o’zi foydalanayotgan tillarda yetarli miqdordagi lug’at zahirasiga ega bo’lishi lozim. Tarjimondan tarjima qilish uchun zarur bo’lgan har ikki tilni erkin egallash talab etiladiki, bunda uning har qanday, jumladan, maxsus atamalar tarjimasini amalga oshirish qobilyati tushuniladi. Jinoyat ish yuritishning mazkur ishtirokchisidan biron-bir tushunchani tushunish yoki tushuntirish emas, balki ularning aniq va to’liq tarjimasi talab qilinadi.

S.P.Sherbaning takidlashicha, “surishtiruvchi tergovchi, prokuror, sudya yurisprudensiya sohasida chuqur ish olib bora olishadi, biroq tilni bilishmaydi yoki tilni bilganlari holda tarjimon funksiyalarini qo’shib olib bora olishmaydi, tarjimon-mutaxassis esa, jinoyat ish yuritish sohasida ish olib bora olmasa-da, biroq jinoyat ishlari yuritiladigan tilda og’zaki va yozma tarjimani amalga oshira oladi<sup>3</sup>.

Shu o’rinda asosli savol yuzaga keladi, jinoyat ishi bo’yicha tarjimon sifatida ishtirok etishga taklif qilinadigan shaxsning zarur tilni egallash darajasini kim va qachon aniqlashi lozim? Jinoyat-protsessual qonunchiligida mazkur savolga javob berilmagan. Mantiqan tilni egallash darajasi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya tomonidan aniqlanishi shart. Biroq, ko’pincha ko’rsatilgan shaxslar jinoyat ishlari yuritiladigan tilni bilmaydigan yoki yetarli darajada tushunmaydigan shaxs so’zlashadigan tildan xabardor bo’lmaydi. Ular obyektiv sabablarga ko’ra, tarjimon sifatida taklif qilingan shaxsning tilni egallash darajasini aniqlay olmaydilar.

Jinoyat-protsessual qonunchilikda tarjimonning yoshiga nisbatan hech kanday talab belgilanmagan. Shu sababli ushbu masalani hal etish surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud (sudya) ning ixtiyoriga havola qilinganligini ko’rishimiz mumkin. Bizningcha, ushbu masalani qonunchilik darajasida qat’iy ravishda hal etish va tarjimonga qo’yilgan asosiy talablardan biri sifatida voyaga yetgan bo’lishi talabini O’zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida mustahkamlash lozim.

<sup>2</sup> O’zbek tilining izohli lug’ati. Beshinchi jild. (A.Madvaliyevning tahriri ostida). – Toshkent: “O’zbekiston milliy ensklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – B. 49.

<sup>3</sup> Щерба С.П. Переводчик в российском уголовном процессе. –М., 2005. – С. 117.



Tarjimon bo'lib faqat voyaga yetgan shaxsning chiqishini bir necha omillar bilan asoslantiriladi. Birinchidan, voyaga yetmagan shaxs tarjima xususiyatlarini, uni amalga oshirish texnikasini va nozik tomonlarini bilmasligini hisobga olish zarur. Ikkinchidan, voyaga yetmagan shaxs tomonidan tarjimon funksiyasini amalga oshirishda unga nisbatan xavfli tashqi ta'sirlar vujudga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni oldini olishdan iborat.

Tarjimon javob berishi lozim bo'lgan asosiy talablardan biri uning kompetentligi bilan bog'liq. Kompetensiya "lotincha-competere" (layoqatli, munosib bo'lmoq) 1) muayyan organ yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi, vakolat; 2) shaxsning biror-bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilish darajasi<sup>4</sup>.

Tarjimon faoliyatiga nisbatan kompetentlilik deganda, tarjima qilinayotgan matn, nutq xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tarjimani amalga oshirish qobiliyati anglashiladi. Bunda tarjimani imkon qadar tez, lo'nda, uzatilayotgan axborot ma'nosini saqlab qolgan holda amalga oshirish zarur. Jinoyat ishlari bo'yicha iqtisodiy yoki tibbiy, biologik, texnik va h.k. mazmundagi matn tarjima qilish zaruriyati yuzaga keladi. Tarjimon nafaqat oddiy so'zlashuv nutqini, balki shu bilan birga maxsus matnlarni ularning o'ziga xos mazmunini hisobga olgan holda tarjima qilishni bilishi va uddalay olishi lozim, aks holda uning matnlarni tarjima qilish sohasida yetarlicha kompetentligi to'grisida gapirish mumkin bo'lmaydi. Biroq, biz, tarjima muayyan shaxs tomonidan o'z professional vazifalarini bajarishi bilan bog'liq bo'lganligi uchun, kompetentlilik har ikki tilni erkin bilishning xususiy tavsifi tarkibida qaralmog'i kerak, deb hisoblaymiz. Tarjimonlar har doim ham turli ixtisosliklar bilan tanish emaslar, biroq tarjimani umumiy tarzda bilish sharoitida ular tarjima uchun zarur tushunchalarni ochib berish va matn tarjima qilishga qodir bo'ladilar.

Tarjimonga nisbatan qo'yiladigan keyingi muhim talab - bu jinoyat ishida manfaatdor bo'lmaslik hisoblanadi. Uning jinoyat ishidan shaxsiy, bevosita yoki bilvosita manfaatdorligidan guvohlik beruvchi holatlar rad etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bevosita shaxsiy manfaatdorlik tarjimonda ushbu ish bo'yicha tergov yoki ishni sudda ko'rish bilan bog'liq holda muayyan moddiy yoki boshqa shaxsiy manfaat mavjudligini anglatadi. Bilvosita shaxsiy manfaatdorlik protsess jarayonida va yakunida tarjimonni o'zining emas, balki uning qarindoshlari, yaqinlari va boshqalarning shaxsiy manfaatdor bo'lishlariga bog'liq ravishda vujudga keladi<sup>5</sup>.

<sup>4</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinchi jild. (A.Madvaliyevning tahriri ostida). – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 396.


<sup>5</sup> Саркисянц Г.П., Агзамходжаев А.А. Переводчик в советском уголовном процессе. – Ташкент, 1974, - Б.56.



Tarjimon sifatida chiqishi mumkin bo'lgan shaxs to'g'risidagi masalani hal qilishda uning jinoyat ishida manfaatdor emasligini e'tiborga olish zarur. Shu sababli tarjimon sifatida jinoyat ishi bo'yicha tomonlar hisoblangan shaxslar chiqqa olmaydilar. Protsessdagi manfaatdor shaxsni tarjimon sifatida jalb etilishini istisno qilish maqsadida protsess boshlanishidayoq tarjimon sifatida taklif qilingan shaxsning protsess ishtirokchilari bilan o'zaro munosabatlarini aniqlashtirish zarur bo'ladi. Tarjimonning mazkur ish buyicha jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar yoki guvoh, ekspert, mutaxassis, xolis, sud majlisi kotibi, himoyachi, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining qonuniy vakili yoki jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning yoki fuqaroviy javobgarining vakili sifatida ishtirok etishi hamda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror sifatida ushbu jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishda ishtirok etishi yoxud mazkur jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishning har qanday ishtirokchisi bilan qarindoshlik munosabatlarida bo'lishi uni rad etish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Fikrimizcha, tarjimon sifatida jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni amalga oshirayotgan organlar rahbarlarining bo'ysunuvida bo'lgan shaxslar ishtirok etmasliklari lozim. Shu tariqa tarjimon sifatida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida va sudda ishlaydigan shaxslar chiqqa olmaydilar. Mazkur shaxslarning tarjimon sifatida ishtirok etishlariga yo'l qo'yilmasligini shu bilan izohlash mumkinki, bunga qarshi bo'lgan holat ya'ni protsess ishtirokchilari (ayblanuvchi va uning himoyachisi, jabrlanuvchi, uning vakili va b.q.)da tarjimonning manfaatdor emasligi va xolisligini shubha ostiga olish uchun asos bo'ladi. Tomonlar vakillaridan birining yoki sudyaning qarindoshlari bo'lgan shaxslar tarjimon sifatida chiqqa olmaydilar. Mazkur shaxslar bilan qarindoshlik aloqalari mavjudligiga tarjimonning ehtimol tutilayotgan manfaatdorligi to'g'risida gapirishga asos paydo bo'lishi mumkin. Tarjimonni jinoyat ishi bilan bog'liq ma'lumotlarni oshkor qilishi mumkin emasligi, shuningdek oldindan bila turib yolg'on tarjima qilganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirish, uning o'z qarindoshlariga yordam ko'rsatishdan manfaatdorligi sababli o'ziga qo'yilgan majburiyatlarni buzmasligiga kafolat bo'la olmaydi. Jinoyat protsessida taraflar vakillari bilan qarindoshlik yoki xizmat munosabatlarida bo'lgan hollarda tarjimonga ish bo'yicha tarjimani amalga oshirishni yuklab, biron-bir yo'lni tanlashdek murakkab vaziyatga solib qo'yishga imkon bermaslik lozim. Tarjimon, basharti o'zi yordam ko'rsatishi kerak bo'lgan shaxs manfaatlariga zid manfaatga ega protsess ishtirokchisiga muayyan tobelik munosabatida bo'lsa, bu holda u so'zsiz rad etilishi zarur deb hisoblaymiz. Zotan, bunday holatda bo'lgan tarjimonning beg'arazlik va xolislikni saqlab qolishiga erisha olishi juda qiyin, shu sababli u rad etilishi kerak.





Shaxsni jinoyat ishlarini yuritishda tarjimon sifatida ishtirok etishi bilan bog'lik keyingi majburiy shart - bu uning surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya tomonidan tanlanishidir. Bu, qaror yoki sud ajrimi chiqarish bilan rasmiylashtiriladi. Bunday qarorni chiqarishdan oldin tergov va sud organlari tarjimonning unga nisbatan qonun tomonidan qo'yilgan barcha talablarga o'z protsessual sifatlari bilan mos kelishiga ishonch hosil qilgan bo'lishlari talab qilinadi.

Jinoyat ish yuritishda tarjimon sifatida tayinlashdan avval ish bo'yicha tarjimani amalga oshirish uchun uning roziligini olish kerak buladi, chunki O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki bosh tortganlik uchun majburiy keltirish nazarda tutilmagan. Shu bilan birga tarjimani amalga oshirish uchun jalb qilinayotgan shaxs surishtiruvchini, tergovchini, prokurorni yoki sudyani qiziqtirayotgan tilni, ish bo'yicha maxsus atamalarni bilmasligini yoki yetarli darajada tushunmasligini aytish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tarjimonni ixtiyoriylik asosida, unga topshirilayotgan vazifaning muhimligini tushuntirish yo'li bilan ishga jalb qilish maqsadga muvofiq.

